

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA GUMANITAR FANLAR RIVOJI

Ismoil Salomov

Qarshi davlat texnika universiteti

katta o'qituvchisi

IsmoilSalomov6661@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda faoliyat yuritgan ba'zi oliy ta'lim muassasalari misolida respublikada gumanitar fanlar sohalarida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlar ko'rib o'tiladi. Davr nuqtayi nazaridan olib qaraganda bu paytda olib borilgan ilmiy izlanishlar o'zining dolzarbligi bilan alohida ajralib turgan. Qolaversa, ko'pgina ilmiy masalalarga aniq javoblar berilganligi ham bu davrning asosiy jihatlaridan biri sifatida baholanadi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются научно-исследовательские работы, осуществлённые в Узбекистане в области гуманитарных наук в годы Второй мировой войны на примере деятельности отдельных высших учебных заведений. С позиции рассматриваемого периода следует отметить, что проводимые в то время научные исследования отличались своей актуальностью. Более того, одним из характерных аспектов данного периода является то, что на многие научные вопросы были даны конкретные и обоснованные ответы.

Annotation

This article explores the scientific research carried out in the field of the humanities in Uzbekistan during the years of the Second World War, based on the example of several higher educational institutions operating at that time. From the perspective of the historical period, the scholarly investigations conducted during this era are notable for their particular relevance. Furthermore, the fact that many academic

questions received clear and well-founded answers is also regarded as one of the defining characteristics of the period.

Kalit so'zlar

Oliy ta'lim muassasalari, fakultet, kafedra, gumanitar fanlar, tarix, adabiyot, arxeologiya, filologiya, ilmiy-tadqiqot, aspirant, dotsent, tadqiqotchi, pedagog.

Ключевые слова:

Высшие учебные заведения, факультет, кафедра, гуманитарные науки, история, литература, археология, филология, научно-исследовательская работа, аспирант, доцент, исследователь, педагог.

Keywords

Higher educational institutions, faculty, department, humanities, history, literature, archaeology, philology, scientific research, postgraduate student, associate professor, researcher, educator.

Kirish

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi murakkab siyosiy-iqtisodiy sharoitlarga qaramasdan o'z faoliyatini davom ettirdi. Bu yillarda ilm-fan sezilarli darajada rivojlandi, ilmiy va akademik muhit sezilarli darajada jonlandi, ayniqsa gumanitar fanlar – tarix, adabiyot, tilshunoslik, falsafa, arxeologiya va madaniyatshunoslik sohalarida muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Urush yillarida, ayniqsa gumanitar fanlarning dolzarbligi yanada ortdi. Shuningdek, bu davrda oliy ta'lim muassasalarida gumanitar fanlarni chuqur o'rganish, sohadagi davr bilan bog'liq muammolarni tezkorlik bilan hal qilish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari qaytadan tuzildi. Respublikada mavjud oliy ta'lim muassasalarining barchasida bu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berildi.

Natijalar

Urush davrida gumanitar sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda mamlakatdagi yetakchi oliy ta'lim muassasasi hisoblangan O'rta Osiyo davlat universiteti alohida o'rin egallaydi. Xususan, universitetda 1942-yil oktyabrda I.I. Umniyakov (1890-1976) "Eng qadimiy turk xaritasi" mavzusida ilmiy-tadqiqot

ishlarini olib borgan hamda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1943-yil may oyida V. Shishkin (1893-1966) “Buxoro vohasining qadimiy madaniyati masalasi” mavzusida ilmiy izlanishlarini muvaffaqiyatli yakunlagan va tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish bo‘yicha dissertatsiya ishini himoya qilgan. Birgina 1942-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetida 26 ta doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoyalari amalga oshirilgan.¹

Bu davrdagi yana bir fundamental ishlardan biri A.Y. Yakubovskiyning ilmiy-tadqiqot ishidir. Sharqshunos va arxeolog A.Y. Yakubovskiy Toshkentda o‘zbek va rus tillarida nashr etilgan “O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi” risolasida: Bu davrdagi yana bir fundamental ishlardan biri A.Y. Yakubovskiyning ilmiy-tadqiqot ishidir. Sharqshunos va arxeolog A.Y. Yakubovskiy Toshkentda o‘zbek va rus tillarida nashr ettirgan “O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi” risolasida: “Shayboniyxon boshchiligidagi o‘zbek ko‘chmanchilari O‘zbekistonning butun hududida bo‘lmasada, uning ma’lum qismida uzoq vaqt madaniy hayot kechirgani va bu jarayonda o‘ziga xos rivojlangan turkiyzabon millat shakllanganligi, ya’ni shayboniylar mahalliy aholi bilan yaqindan aloqa o‘rnatganligi va assimilatsiyaga uchraganligini ta’kidlab o‘tgan. Ko‘chmanchilar – o‘zbeklar ushbu turkiyzabon aholini bosib oldilar, faqat oxirgi atama sifatida biz ularning nomini beramiz”² – degan fikrlarni bildiradi.

Urush davrida O‘rta Osiyo davlat universitetida tarix fani bo‘yicha asosiy ilmiy izlanishlar O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davri tarixi va arxeologiyasini o‘rganishga qaratilgan. Xususan, Tarix fakulteti professorlari I.P. Petrushovskiy va A.A. Semyonovlar O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda feodalizm muammolari, O‘rta Osiyodagi xalqlarning o‘rta asrlarda qo‘shni xalqlar bilan o‘zaro madaniy aloqalari va munosabatlarini o‘rganishgan. M.Y. Masson esa o‘rta asrlar arxeologiyasi va O‘rta Osiyodagi iqlim o‘zgarishlari (Meteorologiya ilmiy-tadqiqot institut topshirig‘iga asosan)ni o‘rgangan. Y.A. Dvornikov esa “Turkistonda 1867-1881-yillarda Chor Rossiyasi hukmronligi davrida milliy mustamlakachilik siyosati”

¹ Salomov I. O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta’lim va fan (1941-1945). –Qarshi, 2025. –B. 63

² Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. –Т.: Фан, 1941. – С. 9.

mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. I.K. Dodonov esa “1917-yilgi Fevral inqilobi” bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Prof. A.Y. Yakubovskiy “O’zbek xalqining kelib chiqish tarixi” bo’yicha, dots. E.A. Voskoboynikov “O’zbek xalqi Ikkinchi jahon urushi yillarida” mavzusidagi risola ustida ilmiy izlanishlarni olib borganlar.

O’zbek filologiyasi va o’zbek adabiyoti kafedrasida A.I. Mo’minov “Hozirgi o’zbek badiiy adabiyotida forsiy leksik elementlar” mavzusida, A.D. Saadi esa “O’rta Osiyo va O’zbekistonda she’riyat nazariyalarining rivojlanish tarixi haqida ocherklar” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Rus filologiyasi va adabiyoti tarixi kafedrasida A.V. Mirtov “Ikkinchi jahon urushi lug’ati” mavzusida ilmiy izlanish olib borib, bu mavzu doirasida 12000 dan ortiq kartochka to’pladi. I.I. Vekoler esa L.N. Tolstoy ijodi ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirdi.³

Toshkent davlat pedagogika va o’qituvchilar instituti Umumiy tarix kafedrasi professori, tarix fanlari doktori Georgiy Andreyevich 1941-1942-yillarda “Islom – marksizm-leninizm asoschilarining talqinida”, “Antik tarix va o’rta asrlar tarixining tanqidiy tahlili”, “Tarixda amaliy mashg’ulotlar o’tkazish metodikasi” kabi mavzular bo’yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan. Shuningdek, u “Turkistondagi rus sanoat kapitalining siyosati” mavzusini o’rgangan. Bu davrda kafedra dotsenti, tarix fanlari nomzodi Xaytun “Ibtidoiy jamiyat” haqida darslik yozib, “Totemizmnining kelib chiqishi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Katta o’qituvchi Gabitov “O’zbekistondagi qabila tizimining qoldiqlari” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.⁴

SSSR xalqlari tarixi kafedrasi professori Vladimir Kun “Vladimir Monomax va rus yerlari himoyasi” mavzusida ilmiy ishlarni olib borgan bo’lib, uni faqat II bobini yozishni uddalagan. Urush vaziyatidan kelib chiqib, Leningrad arxividan

³ O’zMA. R-94-jamg’arma, 5-ro’yxat, 4449-ish, 3-4-varaqlar

⁴ Salomov I. Ikkinchi jahon urushi yillarida oliy ta’lim muassasalarida fanlar rivoji. Fundamental fanlar sohasida asosiy tadqiqotlar. //Turkiston ma’rifatparvar ziyolilar merosining fan, adabiyot, madaniyat hamda ma’naviyat taraqqiyotidagi o’rni (Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami) –Qarshi, 2024-yil 21-22-may. –B. 196

foydalanishning imkoni bo'lmaganligi sababli qolgan boblar bo'yicha ma'lumot to'plash imkoni bo'lmagan. Natijada mavzuni o'zgartirib, "General Suvorov" mavzusi ustida ilmiy faoliyat olib borgan. Kafedra dotsenti H.Sh. Inoyatov "1875-1876-yillarda Qo'qon xonligida xalq qo'zg'olonlari" mavzusi bo'yicha dissertatsiyasini 1942-yilda muvaffaqiyatli tamomlagan hamda taniqli rus tarixchisi, moskvalik olim prof. Ivanovdan taqriz olishga muvaffaq bo'lgan. Yana bir kafedra professori A.P. Fituni "Qadimgi davrdan mo'g'ullar bosqiniga qadar O'rta Osiyo tarixi", "O'zbek xalqi etnogenezi", "Spitamen qo'zg'oloni" mavzulari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Katta o'qituvchi Galim Nakanov "Qo'qon xonligining Rossiya podsholigi tomonidan bosib olinishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan hamda muvaffaqiyatli himoya qilgan. Katta o'qituvchi Hamrayev esa "Buxoro xonligida yer-suv munosabatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini tayyorlagan.⁵

Umumiy adabiyot kafedrası professori L.D. Tarasov "Rim satiralari haqida ocherklar" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini bajarib, uni muvaffaqiyatli tarzda himoya qilgan. Prof. Berezovskiy "Gi de Mopassan va klassik burjua realizmi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yozib tugatgan. Ilmiy maslahatchi sifatida professor Eyxengolts taklif etilgan. Dots. H.S. Sulaymonov fan nomzodi darajasini olish uchun "Farhod va Shirin – Tristan va Izolda" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.⁶

O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti Maqsud Shayxzoda "Navoiy va ijtimoiy madaniyat" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Maqsud Shayxzoda SSSR Fanlar Akademiyasining ilmiy sessiyasida Navoiy ijodi haqida ma'ruza qilgan. Shuningdek, Toshkent davlat pedagogika institutida va SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filialida ham ilmiy ma'zulari bilan ishtirok etgan. Shunday ilmiy anjumanlardan birida "Navoiy – o'zbek klassik adabiyoti asoschisi" mavzusida nutq so'zlagan. Shuningdek, katta o'qituvchi Abdullayeva "Eski o'zbek adabiyotida ayollar

⁵ O'zMA. R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4101-ish, 8-varaq

⁶ O'zMA. R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4101-ish, 9-varaq

roli” nomli dissertatsiya ishi ustida ishlagan va uni muvaffaqiyatli himoya qilganligini qayd etish lozim.

O‘zbek tili kafedrası professori A.K. Borovkov SSSR Fanlar akademiyasining ilmiy sessiyasida “O‘zbek adabiy tilini o‘rganishda Navoiy roli” mavzusida ilmiy ma’ruza qilgan. Bundan tashqari oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “Zamonaviy o‘zbek tilining qisqacha tasnifi” mavzusida kitob nashr ettirgan.

Rus tili kafedrası o‘qituvchisi S.S. Simin “Yozuvchilar tilini o‘rganish” mavzusida uslubiy qo‘llanma tayyorlagan. B.M. Yatsimirskiy “Rus tilidagi murakkab so‘zlar” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. D.Y. Viflemovich “Pedagogika o‘quv yurtlarida Mayakovskiy ijodini o‘rganish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan.⁷

Buxoro pedagogika va o‘qituvchilar instituti kafedralari ham o‘quv yilining boshida urush holatidan kelib chiqib o‘zining ilmiy-tadqiqot mavzularini o‘zgartirdi. Institutning Tarix kafedrasida Qo‘ldoshev va Aripovlar “O‘zbek xalqining o‘tmishdagi qahramonliklari” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirganlar. Bundan tashqari Qo‘ldoshev “Buxoro xonligida soliq va boshqaruv siyosati” mavzusida ham ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan.⁸

Samarqand davlat pedagogika va o‘qituvchilar instituti Filologiya kafedrası ilmiy tadqiqotchisi, filologiya fanlari nomzodi Vohid Abdullayev tomonidan “O‘zbek va tojik she’riyatida Alisher Navoiy izdoshlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan va muvaffaqiyatli tarzda himoya qilingan. Ushbu tadqiqot ishi Sadriddin Ayniy boshchiligida amalga oshirilganligi alohida ahamiyatga molikdir.

Mazkur institut Tarix kafedrasining a’zosi, ilmiy tadqiqotchi Inayatov tomonidan “Chorizm hukmronligi davrida Semirechiyadagi taranchin xalqining tarixi (1882-1917)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi bajarilgan va muvaffaqiyatli himoya qilingan. Ilmiy ishda taranchin (sovet) xalqi tarixini marksizm-leninizm klassiklari

⁷ O‘zMA. R-94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4101-ish, 9-varaq

⁸ Salomov I. O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta’lim va fan (1941-1945). – Qarshi, 2025. – B. 68.

nuqtayi nazaridan rivojlantirish konsepsiyasi ilgari surilgan. Ilmiy ish bevosita taranchin xalqining O'rta Osiyo xalqlaridan biri ekanligini ochib berishga bag'ishlangan bo'lib, ular Qozog'istonning bir bo'lagi ekanligi ta'kidlanib, taranchin va tatar tillaridagi manbalar yordamida fikrlar dalillangan.

Kafedraning yana bir a'zosi, tarix fanlari nomzodi I. Umniyakov "Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asari – XVI asr Markaziy Osiyo tarixining asosiy manbayi sifatida" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi Hofiz Tanish Buxoriy ilmiy ijodining o'ziga xos xususiyatlari va "Abdullanoma" asarining o'sha davrdagi boshqa manbalar orasidagi ahamiyatini aniqlashlashdan iborat bo'lgan.⁹

Falsafa kafedrasi tadqiqotchisi I. Mo'minov 1942-1945-yillar orasida "Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy dunyoqarashi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirgan. Tadqiqot ishida Osiyo xalqlarining jahon sivilizatsiyasi rivojida o'rni va ahamiyatini ko'rsatish hamda shu orqali oliy va quyi irqalar haqidagi fashistik nazariyalarning ilmiy jihatdan bir-biriga ziddligini ochib berish ko'zda tutilgan. Shuning ushbu ilmiy-tadqiqot ishi 2 ta bo'limga bo'lingan holda o'rganilgan: O'rta Osiyo va Hindistondagi XVII-XVIII asrlardagi asosiy falsafiy qarashlar; Bedil va uning biografiyasiga qisqacha ta'rif.

Xulosa

Yuqorida O'rta Osiyo davlat universiteti, O'zbekiston davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika instituti, Toshkent kechki o'qituvchilar insitituti, Buxoro pedagogika va o'qituvchilar instituti, Samarqand davlat pedagogika va o'qituvchilar institutlari misolida O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta'lim muassasalari fakultetlari va kafedralarida gumanitar fanlar doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'rib o'tdik. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishlari respublikada gumanitar fanlar sohalari rivojiga ulkan hissa qo'shganligi bilan ahamiyatlidir. Amalga oshirilgan ko'pgina fundamental izlanishlar natijasida mamlakatda mavjud bo'lgan ko'pgina ilmiy muammolarga yechim topilganligini ham alohida qayd etish lozim. Bu

⁹ Salomov I. O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta'lim va fan (1941-1945). – Qarshi, 2025. – B. 69.

davrda qo'yilgan ilmiy asoslar keyinchalik O'zbekiston ilm-fanining shakllanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Salomov I. O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta'lim va fan (1941-1945). –Qarshi, 2025. –B. 63
2. Salomov I. Ikkinchi jahon urushi yillarida oliy ta'lim muassasalarida fanlar rivoji. Fundamental fanlar sohasida asosiy tadqiqotlar. //Turkiston ma'rifatparvar ziyolilar merosining fan, adabiyot, madaniyat hamda ma'naviyat taraqqiyotidagi o'rni (Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami) –Qarshi, 2024-yil 21-22-may. –B. 196
3. Salomov I. O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta'lim va fan (1941-1945). – Qarshi, 2025. – B. 68.
4. O'zMA. R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4101-ish, 8-varaq
5. O'zMA. R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4101-ish, 9-varaq
6. O'zMA. R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4449-ish, 3-4-varaqlar
7. Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. –Т.: Фан, 1941. –С. 9.